

*Nabijon* ERMATOV

# **T** O'QSON O'QQIZ OPISHMOQ





## DAVLATIMIZ RAMZLARI



1. Hilpirab berar darak,  
O'zbekiston – mushtarak.  
Oy-u, o'n-ikki yulduz,  
Kechani aylar kunduz.
2. Paxta-dondan chamberak,  
Sakkiz qirra yulduzli.  
"Xumo" qush baxtdan darak,  
Quyoshli u kunduzli.  
Amu-Sir to tasviri,  
Keng dala bog' tasviri.  
Go'zal joylashgan bari  
Nima? Sen ayt-chi, Sari?



3. «Serquyosh» deb boshlanar,  
Vodiyi "oltin"ga qiyos.  
"Ulug' xalq" deb maqtalgan,  
Barcha "do'stlarga yo'ldosh",  
Ajdodlarning ruhi yor,  
Deya kuylangan "diyor".





4. Hech qiynalmay endi yoz,  
Berildi zo‘r imtiyoz.  
Muomala, yozuvda,  
"O‘z maqomi" bor, Gulnoz?

5. Koptok shardan bo‘rtib chiqqan,  
Yer, suv, tog‘ turtib chiqqan,  
"Ming to‘qqiz yuz to‘qson birda"  
Davlat bo‘lib, yurt bo‘lib chiqqan.




6. "Turk" eliga o‘zakdir,  
"Sharq"ga guldin — bezakdir.  
Dunyoda tinch bu makon,  
Saxiy yurt (...)





## MURABBIY, O'QUVCHI VA O'QUV QUROLLARI



7. Qo'llaringga tutqazib qalam,  
O'rgatar ko'p, erkalar, suyar.  
Zavol ko'rmay ulg'ay der bolam,  
Shogirdlarin ulug'lar, qo'llar.


8. O'qib-anglab sayraydi,  
Aytib dili yayraydi.  
O'rgatgandan minnatdor,  
Aytganin uqar takror.


6

9. Yolg'iz qolsam yo'ldoshdir,  
O'qib mazza qilaman.  
Hayotimda ko'z-qoshdir,  
Endi ko'p ish bilaman.  
Bobom deydi nur — oftob,  
Uyga kirgan har (...)

10. Yozib umrin tugatar,  
Serharakat shu qadar.


11. Manzillarga yetib borar  
Qo'lsiz, oyoqsiz,  
Do'st fikrini — do'stga der  
Hech bir bo'yoqsiz.





## FASLLAR VA TABIAT

12. Bir fasl bor tengsiz chiroy,  
Kurtak, gullar, dovuchcha.  
O'ylab aytgin Sen picha!



13. To'kinlikda noz-nc'mat,  
Qaysi fasl, ayt, Hikmat?

14. Daraxtlarning barglari,  
Sarg'ayar oltin misol.  
Qay faslda, ayt, Muslim,  
Yuz beradi shunday hol!



15. Oq choyshab, ko'rpa yopar,  
Dov-daraxtlar, dala-qir.  
Borliq dilga xush yoqar,  
Bunda bordir ajib sir.  
Yer ilmida to'xtar ish,  
Bu faslni derlar (...)





16. «Sharq»dan bosh ko'tarar  
Har tong sog'inar bizni.  
Ko'rmasak turolmaymiz,  
Olov yuzli qirmizni.



17. Bir tilik qovun shakli,  
Ko'k gumbazga yarashar.  
Kunlar o'tib to'lishsa,  
Hamma unga qarashar.

18. Tun chog'ida miltirab,  
Osmonni qoplab olar.  
Tong mahali lipillab,  
Yana yo'qolib qolar.

8

19. Ikki rang menga yaqin,  
Biri qora, biri oq.  
Birida olsam orom,  
Birida ish qaynar mutloq.





20. O'rkach-o'rkach oq tuya,  
Birdan kelib qoladi.  
Bir lahza o'tmasdanoq,  
Ko'kni qoplab oladi.

21. Ilon izli yoriq nur,  
Bulutlarni quchadi.  
Jarangdor ovozidan  
Yer-u osmon ko'chadi.



22. Ko'zga ko'rinmaydi u,  
Ovozi bor, jahli bor.  
Yeladi u, tinmaydi,  
Har narsaga dahli bor.



23. Ko'kat, barglar yuziga  
Tongda qo'nar kumush xol.  
Quyoshda lov-lov yonib  
Yashay olmas bemaolol.





24. Oq bulutli osmondan  
Elanadi oppoq un.  
Qoplaganda yer yuzin,  
Yorug' bo'lar hatto tun.



25. Hovuzga qopqoq bo'lar  
Ayni qish chog'i.  
Bahor nafasi yelgach  
So'nar chirog'i.

10

26. Kelar baland tog'lardan,  
Juda ham yiroqlardan.  
Giyoh bitmas bepoyon —  
Sahrolarga berar jon.








## O'SIMLIKLAR, SABZAVOT VA POLIZ MAHSULOTLARI

27. To'rt faslda bir xil libos  
Kiyib yashnar mevasiz.  
Aytсам, bog'ning ko'rki dersiz,  
Siz ham uni sevasiz.




28. Bahorda kiyar libos,  
Kech kuzda yechar qiyg'os.



29. Barg butoqda qaynab bitar,  
Kulcha nonga o'xshab ketar.  
Bu daraxtda bor ko'p bir sir,  
Gullamay, pishadi (...)

30. Qon chiqar kessa pichoq,  
Don chiqar ketsa po'choq.





31. Issiq o'lka vatani,  
Suv, quyosh, o'g'it joni.  
Sariq tuxum mevasi,  
Nordon suvli mazasi.



32. Yuzida dog' xoli bor,  
Danagi bor, boli bor.  
Bodomga yaqin asli,  
Pishar ayni yoz fasli.

33. Yerga qoqdim oltin qoziq,  
Bargi quyon, molga oziq.

12

34. O'zi juda hosildor,  
Qornida qora xol bor.  
Yashil cho'ziq uychada,  
Yotadi qator-qator.





35. La'lmi ekin turidir,  
Don-dunlarning biridir.  
Loviya, moshdan emas kam,  
Ovqatlarga berar ta'm.



36. Koptokka-ku ko'p o'xshamas,  
Oti "Qirqma", "Bo'rikalla".  
"Ko'kcha", "Cho'chir",  
"Aribchopon",  
Mazalidir pishgan palla.




37. Polizda koptok bo'lib,  
Dumalab yotar, to'pmas.  
Dehqon bobom avaylab  
Oziq, suv berar, tepmas.



38. Ko'p-ko'p bo'lsa, xo'b maza,  
Sarg'ayganda bemaza.





39. Bedasimon bargi bor,  
Gulga kirar shonalab.  
Uyum tuproq tagidan  
Terib oldim donalab.




40. Dumaloq g'ildiraksimon,  
Ozuqaga keragim.  
Palakda bitar o'zi,  
Bitta dum, bitta ko'zi.  
"Dev non" desa ham bo'lar,  
Pishsa, shirin ta'm bo'lar.

14

41. Mushtdek dumaloq,  
Tanasi oppoq.  
To'g'rasa oyim,  
Yig'laydi doim.




42. Quyosh desam, quyoshmas,  
Quyoshga boqar.  
To'yimli taom, oshmas,  
Ermakka yoqar.





## QURILISH VA UY RO'ZG'OR BUYUMLARI

43. Ko'p qirrali to'rtburchak,  
Kerak bo'lar uy qursak.
44. Qishda qalqon xizmati zo'r,  
Yozda ishsiz turishin ko'r.
45. G'izza borib, g'izza kelib,  
Bot-botirib tishin burkar.  
O'tin, yog'och barin tilib,  
Tish ostidan qipiq purkar.
46. Ushlash uchun bandi bor,  
Har uyga juda kerak.  
Obi hayot sig'imi,  
Nima ekan bu (...)



15





47. Onam, singlim, opamning  
Qo'llarida o'ynaydi.  
Hovli uyni har kuni  
Tozalaydi, to'ymaydi.



48. G'ijim bo'lsa ko'ylak va shim,  
Yuzi qizib tekislar jim.

49. Samovarning boshida,  
Chambarakda turadi.  
Dastasidan ushlasang,  
Qo'ling bilan yuradi.  
Piyolaga egar bosh,  
Nima, top-chi, sen Yo'ldosh?

16

50. Juda tiniq suv kabi  
Yaraqlaydi ko'zingga.  
Qanday bo'lsang shu holda  
Ko'rinasan o'zingga.






51. Kishi diqqatin tortib  
Uy to'rida turadi.  
Qulog'ini burasang,  
Darrov tilga kiradi.
52. Qo'li yo'q, oyog'i yo'q,  
Qulog'i bor, og'zi bor.  
Har uyga bor keragi,  
Urib tursa yuragi.
53. Shiftdan bizga qarab turar,  
Nurlarini tarab turar.  
O'zini-chi deysan tuxum,  
Nima nomi, top-chi, Muqim?
54. Neni desang yozib u,  
Uzun tasmaga joylar.  
O'zing bo'lib qaytaradi  
O'tsa ham yillar-oylar.





55. Bir xonada oltmish o‘rtoq,  
"Qora qalpoq" boshida.  
Bir-bir chiqib yonib turar,  
Turar o‘choq boshida.



56. Qishda burnidan  
Chiqar tutun.  
Yoz bo‘yi uyda  
Issiqdir butun.

18

57. Qizimning «qizalog‘i»,  
Goh-goh yig‘lar, yemaydi.  
Biz tamaddi qilganda,  
Menga bering demaydi.







## OZIQ-OVQATLAR

58. Turli-tuman taomlar,  
Usiz shirin bo'lmaydi.  
Goh kam, goh o'tkir bo'lsa,  
Aslo ko'ngil to'lmaydi.





59. Choyga solsam erib ketar,  
Lazzatin berib ketar.

60. Katta qozon ichida  
Sabzi-piyoz gaplashar.  
Tepaga kim chiqar deb  
Guruch va go'sht talashar.  
Chirsillab qo'yar olov  
Tayyor bo'ldi deb (...)



61. O'zi oppoq, sut emas,  
Qaynatmasdan ichasan.  
Ichsang tanang yayraydi,  
Go'yo ko'kka uhasan.  
Suzma-chakka, tuz hayron,  
Suv qo'shsang bo'lar (...)





## TRANSPORT VA ELEKTROTEXNIKA



62. Yotiq uchmas, tik uchar,  
Bir zumda fazo quchar.

63. Ikki shoxli uzun uy  
Ko'chalarda yuradi.  
Manzillardan manzilga  
Odam eltib turadi.

20

64. Erta-kech harakatda,  
Dam oladi bekatda.  
Na'ra tortib der jiring:  
"Ehtiyot bo'ling, yo'l bering!  
Yuraman po'lat izdan,  
Qolishmayman poyezdan".



65. Cherrahada uch chiroq  
Xizmat qilar hammaga.  
Bir-bir yonib, bir o'char,  
Ish qolmas hech muammoga.





## CHOLG'U ASBOBLARI

66. Nokning yarim pallasi,  
Bo'g'iq tovush allasi.  
"Qisqa dasta", "Besh quloq",  
Qani, bilsang top, o'rtoq.



67. Bersa yoqimli sado,  
Bulbul ham mastdir hatto.  
Xizmatda lab, qo'l, til,  
Qani, bilsang top, Qobil.

68. Gardish kabi dumaloq,  
Kumush halqali biroq.  
Qo'shiq, kuyga jo'r bo'lar,  
Ijrochiga yo'l bo'lar.




69. Kosasimon qorni bor,  
Har sozandaga u yor.  
Bir cho'p bilan kuy tarar,  
Tinglab ko'ngillar yayrar.





70. Kichik-kichik bir juft xum,  
Teri qoplab yuziga,  
Ursang deydi "baka-bum",  
Cholg'uchining o'ziga.



71. Tuzilishi ajoyib,  
Tori ko'p, uzun dasta.  
Aytgin-chi, o'ylab ko'rib,  
Qulog'imga, sen asta,  
Der kichik ukam Turob.  
Aka, bu cholg'u (...)

22

72. Aksing ko'rinar boqsang,  
Xonaning ko'rkam fayzi.  
Kuyiga mos shu azal,  
Do, re, mi, fa, sol, lya, si.



73. Bir juft ipdan tori bor,  
Popugi bor hashamdor.  
Bosh barmoq, to'rtta panja,  
Ijroda ukam Kenja.  
Maroq bilan chertar tor,  
Qo'lda o'ynar, by (...)





74. Qo'sh tayog'im xo'b jaji,  
Kaft ichida joy bo'lar.  
Go'zal, ixcham ko'p jaji,  
Chalsang ko'ngillar to'lar.

75. Ajoyib tovushi bor,  
Qilli tayoq unga yor.  
Ikkidan ortiq tori,  
Beshdan ikki kam bori.

76. Tovushlarga mos sozi,  
Qalqon naychada nozi.  
Karnayga uka, hay-hay,  
Bilsang, ayt-chi, Abdulhay.

77. To'y, bayramda yangrar soz,  
Jarangdor baland ovoz.





78. Qo'lda o'ynar ikki cho'p,  
Sim torlari juda ko'p.



79. Soz ushlab usta Turg'un,  
Yangratar ovozin mag'zur.  
Barmoqqa kiyib nohun,  
Sel bo'lib chalar (...)

24





## HAYVON VA PARRANDALAR

80. Beqasamdan kiyib to'n,  
Ko'z-ko'z qilar o'zini.  
Sanimdek otmas, jun,  
O'ynatadi ko'zini.




81. Bo'yni so'roq shaklidir,  
Kalta dumli, zo'r maxluq.  
Sahrolarning bezagi,  
Suvsizlikdan etmas churq.

82. Yuradi ko'cha-ko'yda,  
Goho yashaydi uyda.  
Ola-chipor to'ni bor,  
Ko'p foydali jonivor.  
Soqoli yo'q, sermo'ylov,  
Qani, kim topar darrov?

25

83. Bir tana bor, ostida  
To'rtta jo'mrak.  
Sahar, shomda oyimlar  
Qiladi ermak.






84. Yonidan o'tsa birov,  
Bo'ynini cho'zib darrov.  
Cho'qiy deb qilar hujum,  
G'a-g'alaydi betinim.



85. Ariq-anhor yoki ko'l  
Bo'lsa, bas-bas bir qushcha.  
Bizga ovqat unda mo'l,  
Don-dun qolsin der tushga.

26

86. Rangi har xil, qora-oq,  
Oyog'ida bor paypoq.  
Yerda yuradi asta,  
Suvda suzishga usta.



87. Qo'shig'i asli "ku-ku"  
Tongni qarshi olar u.  
Ko'zdan qochsin deb uyqu,  
Jar soluvchi so'zi shu.





88. Dum-dumaloq oq uydan  
Jajji qush uchib chiqar.  
"Chiy-chiy"lar murg'ak dili,  
Olamni quchib chiqar.

89. Ertakka qaraganda,  
Ilon tilin cho'qigan.  
"Qaychidum", jajji qanot,  
"Val-fajir"ni o'qigan.




90. Oq-qora, ola-chi por,  
Qo'ng'ir, kulranggi ham bor.  
Charx uradi osmonda,  
Bizning tinchlik zamonda.

27

91. Ko'zlari chaqnab turar,  
Tog' yong'og'in xush ko'rar.  
Dumi uzun o'zidan,  
Shoxma-shox sakrab yurar.





92. Xavf bo'lsa, koptok bo'lib  
Igna ko'rpa yopadi.  
Zumda ko'z ochib, turib  
Ilgarilab chopadi.



93. Bahor sep yozgan mahal  
Uchib kelar jaji qush.  
"Chit-chit" etib bog'ma-bog',  
Dillarni u etar xush.

28

94. Osti yassi, usti gumbaz,  
Emaklagan tosh ko'rdim.  
Xavf sezsa to'xtar bas-bas,  
Bitta uzun bosh ko'rdim.



95. Qora, qizil qanotli,  
Bitta o'tim ishlar ko'p.  
Tinim bilmas yoz bo'yi,  
Qishda mamnun, xursand xo'b.

96. Suv ostida makoni,  
Chuvalchang uning joni.  
Qo'lda turmaydi silliq,  
Tanga to'nli u (...)





## SPORT TURLARI

97. Yigirma ikki kishi,  
Hammaning bitta ishi.  
To'pni ilgari surmoq,  
To'r tuzoqqa tushirmoq.



98. Ikki kishi o'ynaydi,  
Uzoq-uzoq o'ylaydi.  
Alomati "Kisht" va "Shoh",  
Qani, top-chi, ey Fattoh?

99. «Chala», «yonbosh» degan bilan  
Ish bitmaydi maydonda.  
Faqat «halol» bo'lganda  
Olqish yangrar polvonga.  
Butun dunyo qiziqqan  
Bir-biridan so'rashib  
Ming yillik tarixi bor,  
Nomi (..)



29



## TO'QSON TO'QQIZ TOPISHMOQ

*Aytdim senga, bolajon,  
To'qson to'qqiz topishmoq.  
Maqsadimni bilsang gar —  
Sening onging oshirmoq.  
Ko'p bilib, ko'p o'qigil,  
Saodatli vatanda.  
Ko'p yayrab, ko'p to'qigil  
Shijoat bo'lsin tanda!*

# JAVOBLAR:







46. Chelak



47. Supurgi



48. Dazmol



51. Radio



58. Osh tuzi



53. Lampochka



50. Ko'zgu



57. Qo'g'irchoq



59. Qand



52. Soat



55. Gugurt



56. Mo'ri



65. Svetofor



61. Ayrin



54. Magnitofon



62. Raketa



60. Palov



63. Trolleybus



66. Afg'on rubob



41. Piyoz



34







93. Chittak



77. Karnay



68. Doira



69. G'ijak



70. Nog'ora



72. Pianno



92. Tiptatikan



91. Ohmaxov



30. Anor



67. Ney

35



78. Chang



49. Choyrak



34. Loviya



42. Kangaboqar



98. Shohmot



83. Sigr



44. Eshik



45. Arra



43. G'iaht



96. Baliq



99. Kurash